

KICHIK BIZNESNI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Aminboyev Jahongir Oybek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received:18.04.2025

Revised: 19.04.2025

Accepted:23.04.2025

Ushbu maqolada kichik biznesni samarali rivojlantirishda moliyalashtirishning asosiy yunalishlari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan ilmiy-nazariy asoslar keltirildi.

KEYWORDS:

kichik biznes,
kreditlash, tadbirkorlik,
imtiyozli kreditlar, tovar
ishlab chiqarish,
moliyalashtirish,
xususiy tadbirkorlik.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni turli mulkchilik shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, buni qonuniy asoslari ham yaxshi shakllantirilgan. Fuqarolarning o'z mulkiga o'zi egalik qilishi va tadbirkorlikni rivojlantirishi bilan bog'liq huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Zotan davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" deb yozib qo'yilgan. Konstitutsiyada kafolatlangan mana shu huquq mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faol qismini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, o'z xohishi bilan tavakkalchilik qilib, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar

ko'rsatish va ularni ayirboshlash orqali insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning turmush tarzini yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Har qanday mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining darajasi ayni shu mamlakatda tadbirkorlik qay darajada taraqqiy etganligidan dalolat berib turadi. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur'atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari ulushining ko'payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko'payib borishi esa, o'z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 53,3 foizni tashkil etmoqda.

Avvalo kichik biznes va xususiy tadbirkorlik haqida so'z yuritishdan oldin ushbu iqtisodiy tushunchalarga ta'rif berib aniqlik kiritib olishimiz kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni turli mulkchilik shakllariga keng imkoniyatlar yaratib berilgan bo'lib, buni qonuniy asoslari ham yaxshi shakllantirilgan. Fuqarolarning o'z mulkiga o'zi egalik qilishi va tadbirkorlikni rivojlantirishi bilan bog'liq huquqlari davlat tomonidan kafolatlanadi. Zotan davlat xususiy mulkdor huquqlarining himoyachisidir. Shu sababli ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida "Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli. Bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanadi" [1] deb yozib qo'yilgan. Konstitutsiyada kafolatlangan mana shu huquq mamlakatimiz aholisining iqtisodiy faol qismini, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga, o'z xohishi bilan tavakkalchilik qilib, tovarlar ishlab chiqarish, xizmatlar ko'rsatish va ularni ayirboshlash orqali insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, ularning turmush tarzini yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimiz fuqarolarining tadbirkorlik bilan bog'liq huquqlari va tadbirkorlik tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 iyunda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunida bayon qilingan bo'lib, uning 3-moddasida tadbirkorlik faoliyati "Tadbirkorlik faoliyati subektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat" deya izohlangan.

Bizning fikrimizcha **kichik biznes va xususiy tadbirkorlik** bu- ma'lum tanlangan yo'nalish bo'yicha bozor talabini inobatga olgan holda o'z tavakkalchiligi ostida ishlarni tashkil etishdir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 24-moddasida esa "fuqaro yakka tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tadbirkorlik faoliyati bilan

shugʻullanishga haqlidir” [2] deb qayd etilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishda ularning sifat va miqdor koʻrsatkichlariga eʼtibor beriladi. Sifat koʻrsatkichlarga korxonaning boshqaruv tizimining soddaligi, bozordagi ulushiga ega boʻlishi kabi koʻrsatkichlar kirs, koʻp tarqalgan miqdor koʻrsatkichlariga, korxonada ishlovchilar soni, asosiy mablagʻlar qiymati, mahsulot sotish hajmi kabi koʻrsatkichlar kiradi. Aynan shu ishchilar soniga qarab aniqlashda ham turli xilma-xillik mavjud. Masalan, Yaponiya va Gʻarbiy Yevropa mamlakatlarida 300 kishigacha, AQSH va Italiyada 500 kishigacha, Tailand va Singapurda 50 kishigacha ishlovchisi boʻlgan korxonalar kichik korxonalar hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasida kichik va oʻrta korxonalar sektori “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” deb ifodalanadi.

Kichik biznes subektlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi. Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tasniflanishi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tansinflash tizimiga oʻtish boʻyicha chora- tadbirlar toʻgʻrisida” 275-sonli Qarori bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta “Xodimlar soni” mezonini oʻz ichiga oladi. Oʻzbekistonda “oʻrta biznes” segmenti mavjud emas.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbikorlikni ifodalanishi [3]

Xalqaro amaliyot o‘rganilganda kichik biznes va xususiy tadbikorlikni aniqlash mezonlari o‘rganilganda ular qisman mos kelmasligi ma’lum bo‘ldi. Umuman olganda, dunyo mamlakatlarining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tajribasi o‘rganilganda, turli mamlakatlarda bu sohani takomillashtirish borasida turlicha mexanizmlar qo‘llanilganligi va qo‘llanilayotganligini ko‘rish mumkin. Masalan, Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti mamlakatlarida “bir darcha” tamoyilidan keng foydalaniladi. Fransiyada esa Biznes- rasmiyatchiliklar bo‘yicha markazlar tarmog‘i bo‘lib, mazkur Markazlar ruxsatnomalar berish borasida vakolatli davlat organlari tomonidan belgilangan talablarga ko‘ra tadbirkorlarga va boshqa manfaatdor shaxslarga ma’lumotlar taqdim etib boradi. Hozirda Iqtisodiy Hamkorlik Tashkiloti davlatlarida ruxsat berish bilan bog‘liq tartib-taomillarni yanada qisqartirish bo‘yicha maxsus ko‘rsatma qabul qilingan.

Shu bilan bir qatorda, sohada axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini

kengaytirish, “on-line” rejimi orqali hujjatlarni elektron tarzda taqdim etishni joriy qilish va hujjatlarni faqat sud qaroriga asosan chaqirib olish tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilgan. Xitoy, Bolgariya, Kolumbiya, Birlashgan Arab Amirliklari, Moldova, Xorvatiya kabi mamlakatlar bu borada o‘ziga xos yo‘l tutganliklarini ham aytib o‘tish lozim [4]. Bu mamlakatlarda juda qisqa vaqt mobaynida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochilganligi, xususan ruxsat berish tartib-tamoyillari soddalashtirilganligi va qisqartirilganligi natijasida biznesni tashkil qilishga ketadigan xarajatlar hamda vaqt tejalishi hisobiga investitsiyalarning kirib kelishi osonlashgan. Ayniqsa, hujjatlarni “bir darcha” orqali taqdim etish prinsipi asosida ishni tashkil qilish sezilarli ravishda ijobiy natija bergan.

Birgina misol bugungi kunda Niderlandiyada tadbirkorlik sohasidagi g‘ov va to‘siqlarni bartaraf qilish, ruxsat berish tartibotining qisqartirilishi va soddalashtirilishi tufayli har yili 2 mlrd. AQSH dollari miqdorida davlat mablag‘lari iqtisod qilinayotganligi [5] yaxshi natijadir.

Hindistonda keyingi yillarda bu tartib-tamoyillarning qisqartirilishi natijasida yalpi ichki mahsulot keskin ko‘paygan – bu boradagi ko‘rsatkich 3,5 foiz dan ko‘tarila borib 6-7 foizga yetgan [6]. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Bu mamlakatda keyingi o‘n yil mobaynida 11000 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat inventarizatsiya qilingan va ruxsat berish tartib-taomillari keskin qisqartirilgan, natijada yalpi ichki mahsulotda xususiy sektorning ulushi keskin oshgan.

Rivojlangan davlatlar tajribalari o‘rganilganda, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish uchun asos bo‘lgan moliyaviy ta‘minot, biznes uchun yagona omil emas, balki har qanday biznes uchun uni boshlash va davom ettirish uchun eng hayotiy va asosiy element hisoblanishi ma‘lum bo‘ldi.

Albatta, barcha biznes loyihalarimizni amalga oshirishimiz uchun bizga sarmoya ya‘ni pul mablag‘lari kerak bo‘ladi. Shunisi, diqqatga sazovorki pul mablag‘lari manbalari qayerdan, qanday qilib shakllanishi muhim emas, uning huquqiy asosga ega ekanligi, arzon va tez topilishidadir.

Xorijlik va o‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash masalasi ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli xulosalar shakllantirilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Taniqli iqtisodchi olim Adam Smitning fikricha “Pul bu maqolda aytiladi, agar pul senda ozroq bo‘lsa ham, ko‘proq olish osonroq bo‘ladi. Katta qiyinchilik bu o‘sha ozroqni topishdir” [7]. Bu fikr, bir narsani o‘rgatadi, ya‘ni pul topish va uni kerakli joyga sarflash orqali o‘z daromadini topish mushkul ish ekanligini bildiradi. Kichik biznes subektlari o‘z

tavakkalchiligi ostida biznes rejasini amalga oshirish uchun bankdan kredit oladi va o'z ishini yo'lga qo'yadi. Bu esa iqtisodiyotni rivojlanishiga olib keladi.

Amerikalik iqtisodchi olim Giles (Giles)ning fikricha "mamlakatda siyosatchilar va moliya institutlari umumiy maqsadga ega bo'lishi kerak, chunki kichik va o'rta biznes subektlari iqtisodiyotning muhim qismidir va kichik va o'rta biznes subektlari yaxshi va istiqbolli biznes hisoblanadi [8]. Bu fikrni qo'llash O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tez va barqaror o'sishiga olib keladi.

Bangladeshning "Grameen Bank"ni tashkil qilgan, Nobel mukofotining sohibi, taniqli iqtisodchi olim M.Yunus kichik biznes subektlarini kreditlash sohasida o'ziga xos bo'lgan inqilobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi. Xususan, uning tashabbusi va taklifi bilan kichik biznes subektlarini guruh javobgarligi asosida kreditlash shakli, garovsiz kreditlash turi "Grameen Bank" amaliyotiga joriy etildi.

M.Yunusning fikriga ko'ra, endi ish boshlayotgan kichik biznes subektlarini kreditlashda asosiy e'tibor kreditlashning ijtimoiy samarasiga qaratilishi kerak. Tadbirkorlik subektlarining moliyaviy imkoniyatlari kengaygandan so'ng, ular bozor stavkalarida beriladigan kreditlarga bo'lgan talabning oshishiga sababchi bo'lishadi [9].

Hindistonlik taniqli bankir, kichik va o'rta biznes subektlari kreditlash uchun SMEcorner.com internet platformasining asoschisi Samir Bhatianing fikricha "kichik biznes mamlakatdagi o'sish va innovatsiyalar uchun iqtisod va yoqilg'ining asosi hisoblanadi. Kichik va o'rta biznes subektlari nafaqat ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Biroq, ularning milliy iqtisodiy tuzilmadagi hal qiluvchi roliga qaramay, Hindistonda kichik va o'rta biznes subektlari rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu o'sib borayotgan kichik va o'rta biznes subektlarining muammolarini oz bo'lsa ham hal qilish uchun aylanma mablag'larning mavjudligini ta'minlash SMEcorner.com platformasini tashkil etdim. SMEcorner.com kompaniyasining vazifasi kompyuter savodxonligi, axborot texnologiyalari va sun'iy intellektni xavfsiz muhitda birlashtirgan o'z "on-line" platformasidan foydalanib, Hindistonda kichik va o'rta biznesni kreditlashda farqni to'ldirishdir. Biz biznes kreditlari ekosistemasida qulaylik va moslashuvchanlikni ta'minlashni istaymiz va kichik biznes rivojiga yordam berishga intilamiz" [10]. Bildirilgan fikrlar to'g'ri lekin, internet orqali berilayotgan kreditlardan kelgusida kim foydalanayotganligi va uning qaytarilishini ta'minlash masalasi bir tomondan bo'lsa, boshqa bir tomoni ushbu kreditlarning foizi bir muncha baland bo'lishi ham mavjudligi bu borada respublikamizda internet platformasi orqali kredit berish tizimida

e'tibor berishimiz kerak bo'lgan muammolardan biridir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subektlarida operations chiqimlarning katta ekanligi va inflyatsiya darajasining yuqori ekanligi ularni tijorat banklari va mikromoliyalash tashkilotlari tomonidan kreditlashni rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda.

Kichik biznes sohasini kreditlash sohasida tadqiqotlar olib borgan o'zbek iqtisodchi olimlari qarashlarini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy qarashlarga duch kelindi.

I.Alimardonovning ilmiy ishlarida kichik biznes subektlarini kreditlashning nazariy va metodologik asoslari tadqiq qilingan va bir qator ilmiy xulosalar shakllantirilgan, takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xususan, tijorat banklari tomonidan kichik biznes subektlariga beriladigan past foizli kreditlar hajmini oshirish maqsadida, birinchidan, banklarning ustav kapitalida davlatning ulushini, ushbu resurslarni kichik biznes subektlarini imtiyozli kreditlashga yo'naltirish sharti bilan oshirish lozimligi, ikkinchidan, pensiya fondi va davlat sug'urta kompaniyalarining bo'sh pul mablag'larini tijorat banklariga past foiz stavkalarida, ularni kichik biznes subektlarini kreditlashga yo'naltirish sharti bilan, muddatli depozit qilib joylashtirish kerakligi aytib o'tilgan [11]. Bu fikr, o'rinli deb o'ylayman, lekin pensiya fondi mablag'larini muddatli depozitlarga joylashtirishda imkon qadar aksiyadorlik tijorat banklariga ko'proq e'tibor berilishi kerak. Chunki, xususiy bankka nisbatan aksiyadorlik tijorat bankining olingan depozitlarni kerakli vaqtida qaytarib berish imkoniyati bir muncha yuqoridir.

Eng e'tiborli jihati, moliyaviy koeffitsiyentlar tarkibiga qo'shimcha ravishda foyda meyor koeffitsiyentlarini, qarzga xizmat ko'rsatish koeffitsiyenti va kreditor qarzдорlikning aylanish koeffitsiyentini kiritish yo'li bilan kichik biznes subektlarining kredit to'loviga layoqatliligini aniqlash metodikasini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan. Bu metodika banklarning kichik biznes subektlariga bergan kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytishiga bir zamin yaratadi deb o'ylayman.

U.V.Gafurovning "Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida"gi olib borgan ilmiy nazariy qarashlari diqqatga sazovordir. Uning fikricha kichik biznes subektlari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish shakl va vositalari kichik biznes sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra o'zgarib, unga mos tushuvchi vositalar qo'llanib borishi lozim. Soha taraqqiyotining dastlabki pallasida ko'proq tadbirkorlik asoslariga o'qitish, biznes-reja tuzishda ko'maklashish va maslahat berish, turli imtiyozlar berish, mikrokreditlash muhim o'rin tutsa, nisbatan keyingi bosqichda imtiyozli kreditlash,

lizing, kafillik tizimini yaratish, o'rta muddatli kreditlar taqdim etish, navbatdagi bosqichda esa davlat buyurtmasi bilan ta'minlash, tashqi bozorga chiqishga ko'maklashish, milliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish muvofiq tushadi [12]. Keltirilgan fikrlarning ayrimlariga qo'shilmaymiz, chunki kichik biznes rivojida imtiyozli kreditlash birlamchi omillardan biri sifatida qaraymiz. Olim bu omilni ikkinchi o'ringa qo'ymoqda.

B.Y.Xodiyev va S.K.Salayevlarning ilmiy izlanishlarida kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash masalalari to'g'risida yoritilgan [13], [14]. Lekin xorij tajribasi asosida rivojlantirish masalalariga batafsil yoritilmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodchi olimi J.Y.Isakovning ilmiy izlanishlariga ko'ra hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, respublikamizning shimoliy hududlarida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish subektlariga tijorat banklari tomonidan beriladigan kreditlarning foiz stavkalarini (Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini bazaviy stavka ekanligini inobatga olgan holda) mazkur banklarni davlat tomonidan bilvosita moliyaviy qo'llab-quvvatlash orqali qoplab berish nazariyasini ilgari surgan [15]. Bu fikrlar tijorat banklari tomonidan kreditlash jarayonida mijozning joylashgan joyini inobatga olib kreditlashda alohida foizlar belgilash lozimligini anglatishini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 21.03.2019 y., 03/19/531/2799-son ilova.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-sonli Qarori asosida tayyorlandi.
4. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlar. Maqolalar to'plami. –Toshkent, YUMOM, 2016. – 140 b.
5. www.worldbank.uz m'lumotlari asosida tayyorlandi
6. www.msme.gov.in internet sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi
7. www.google.com Adam Smith, 1937: "An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations", Edwin Cannan (Ed.), The Modern Library/ Random House Inc., New York
8. www.google.com Giles "Economics of development", New York, 1987

9. Muxammad Yunus, Alan Joli. Sozdavaya mir bez bednosti: sotsialniy biznes i budusheye kapitalizma. Per. s angl. – M.: Alpina Publsherz, 2010. – 307 s.
10. www.SMEcorner.com sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi
11. I.M.Alimardonov "Kichik biznes subektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish" Dok. diss. avtoref. Toshkent 2018 y.
12. U.V.Gafurov Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Dok. Diss. avref. Toshkent 2017 y.
13. Xodiyev B.Y. O'zbekiston iqtisodiyotiida tadbirkorlik rivojlanishini ekonometrik modellashtirish. Dis.... iqt. D-ri. – T., TDIU. 2000. -338 b.
14. Salayev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashtirish va bashoratlash (O'zbekiston Respublikasi misolida). Dis... iqt. Fan. d-ri. – T., 2008.
15. J.Isakov Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish Dok. diss. avtoref. Toshkent 2017 y.

